

**TABAQALASHTIRILGAN VA INDIVIDUALLASHTIRILGAN TA'LIM**

*Urganch davlat tibbiyot instituti  
Magistratura bosqichi Akusherlik va  
ginekologiya yo'nalishi magistranti  
Qurbanbayeva Mohira Umirbek qizi  
Satimbayeva Laylo Ro'zimbay qizi*

**Annotatsiya:** Zamonaviy ta'lim tizimi avvalo inson shaxsini har tomonlama rivojlantirish, uning intellektual, ijtimoiy va ruhiy ehtiyojlarini to'liq ochib berishga qaratilgan. Bu jarayonda har bir o'quvchining o'ziga xos xususiyati, tafakkuri, dunyoqarashi, qiziqishi, bilimi va aqliy salohiyatidan kelib chiqib ta'limni tashkil etish dolzarb masalaga aylanadi. Shu bois, zamonaviy metodik yondashuvlarda tabaqalashtirilgan va individuallashtirilgan ta'limning mohiyati va ahamiyati o'zgacha e'tibor bilan ko'rib chiqilmoqda. Chunki har bir bola o'ziga xos, uning ehtiyoj va imkoniyatlari boshqacha, qobiliyat darajasi va rivojlanish sur'atlari insondan-insonga farqlanadi. Agarda o'qitish jarayonida barchaga bir xil yondashuv qo'llanilsa, o'quvchilar ichki salohiyati namoyon bo'lmaydi, bilim olish jarayonida to'siqlarga duch kelishadi, qiziqish va rag'bat pasayadi.

**Kalit so'zlar:** Tabaqalashtirilgan ta'lim, individuallashtirilgan ta'lim, shaxsiy rivojlanish, pedagogik metodika, zamonaviy ta'lim texnologiyalari, kreativlik, mustaqil ta'lim.

**Аннотация:** Современная система образования в первую очередь направлена на всестороннее развитие личности, полное раскрытие её интеллектуальных, социальных и духовных потребностей. В этом процессе организация образования с учётом уникальных характеристик, мышления, мировоззрения, интересов, знаний и умственного потенциала каждого ученика становится актуальной задачей. Поэтому в современных методических подходах особое внимание уделяется сущности и важности дифференцированного и индивидуализированного образования. Каждый ребёнок уникален, его потребности и возможности различны, уровень способностей и темпы развития у всех разные. Если ко всем в процессе обучения применять один и тот же подход, ученики не смогут раскрыть свой внутренний потенциал, столкнутся с препятствиями в процессе усвоения знаний, интерес и мотивация снизятся.

**Ключевые слова:** Дифференцированное образование, индивидуализированное образование, личностное развитие, педагогическая методология, современные образовательные технологии, креативность, самостоятельное обучение.

**Abstract:** The modern education system is primarily aimed at the comprehensive development of the human personality, the full disclosure of its intellectual, social and spiritual needs. In this process, the organization of education based on the unique characteristics, thinking, worldview, interests, knowledge and mental potential of each student becomes an urgent issue. Therefore, in modern methodological approaches, the essence and importance of differentiated and individualized education are being considered with special attention. Because each child is unique, his needs and capabilities are different, the level of abilities and rates of development differ from person to person. If the same approach is applied to everyone in the teaching process, students will not reveal their inner potential, they will encounter obstacles in the process of acquiring knowledge, interest and motivation will decrease.

**Keywords:** Differentiated education, individualized education, personal development, pedagogical methodology, modern educational technologies, creativity, independent learning.

### **Kirish**

Ta'lim tizimida tabaqalashtirish deganda, o'quvchilarni bilim darajasi, aqliy rivojlanishi, qobiliyat va ijtimoiy omillar, individual ehtiyojlari asosida guruhlarga ajratib, ularning har biriga mos maxsus yondashuv hamda didaktik metodlarni ishlab chiqish tushuniladi. Tabaqalashtirilgan ta'limda asosiy maqsad o'quvchilar o'rtasidagi individual farqlarni inobatga olib, har bir bolaning qobiliyatini to'laqonli rivojlantirish uchun sharoit yaratish, uning darsdagi ishtiroki va samaradorligini oshirishdir. Bunday yondashuv o'quvchilarning o'z ustida ishlash, ijodiy fikrlash, aniq natijaga erishish, mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini muntazam mustahkamlash imkonini beradi. Individuallashtirilgan ta'lim esa aynan har bir shaxs — farzand, o'quvchi uchun maxsus, o'ziga moslashtirilgan ta'lim yo'nalishlarini, metod va vositalarini ishlab chiqish bo'lib, bunda har bir shaxsning rivojlanish sur'ati, dunyo va hayot haqidagi fikr doirasi, orzusi, maqsad va ehtiyojlari asosiy mezon sifatida qaraladi. Individuallashtirilgan ta'lim har bir bolani mustaqil, ijodiy, tashabbuskor shaxs sifatida tarbiyalashga yordam beradi, uning intellektual salohiyatini to'liq ochadi, axloqiy va ma'naviy taraqqiyotini ta'minlaydi.

### **Adabiyotlar tahlili va metodologiya**

Bugungi kunda jamiyatda tezkor ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik o'zgarishlar ro'y bermoqda. Hayotiy voqealar, jamiyatga moslashuv, kasb tanlash, shaxsiy muvaffaqiyatga erishishda yangi yondashuv, aniq pedagogik strategiya talab etiladi. Shu sababli har bir o'quvchi o'z ehtiyoji, kuchi va qiziqishiga qarab bilim olishi, jamiyat hayotida faol ishtirok etishi o'ta muhim masalaga aylandi. Har bir shaxs, ayniqsa, bola davridan boshlab, ta'lim jarayonida individual farqlari inobatga olinsa, hayotda o'z yo'lini tez topa oladi, kelajak kasb-hunariga puxta tayyorgarlik ko'radi.

Shu sabab dan tabaqalashtirilgan va individuallashtirilgan ta'lim zamonaviy pedagogikada dolzarb nazariy va amaliy masalalardan biri sifatida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Tabaqalashtirilgan ta'lim amaliyotda turli shakllarda amalga oshiriladi. Ba'zi hollarda o'quvchilar o'z bilim darajasi va ravnaqi bo'yicha dastlabki tekshiruvlardan o'tkaziladi va natijalarga ko'ra, guruhlariga bo'linadi. Har bir guruhga turli darajadagi vazifalar, savollar va mashqlar tayyorlanadi. Tabaqalashtirishda asosiy mezonlar — bilim darajasi, tez o'zlashtirish, mustaqil fikr ayta olish, savollar yechishda yondashuv va muammoni hal qilishda sinchikligi. Boshqa yondashuvlarda esa guruh ichi tabaqalashtirish va o'quvchilarning mustaqilligini oshirish metodlari tatbiq etiladi. Tabaqalashtirilgan ta'limda o'qituvchi har bir bolaning bosqichma-bosqich taraqqiyotini sinchkov tahlil qilib boradi va zarur bo'lsa, ularga individual yordam ko'rsatadi [1].

Individuallashtirilgan ta'limda esa metod va vositalar bir o'quvchi uchun eng samarali deb topilgan shaklda tanlanadi. Bir o'quvchiga ko'proq vizual (ko'ruv orqali eslab qolish), boshqasiga eshitish yoki harakat yo'li orqali mashqlar tayyorlanadi. Har bir bola o'zining qobiliyati va qiziqishidan kelib chiqib, mustaqil grafik, interfaol mashg'ulot, loyiha, yoshga mos o'yin yoki amaliy topshiriqlar bajaradi. Eng muhimi, bu usulda bolaning mustaqil fikrlash, yangiliklarni tez o'zlashtirish, o'z yo'nalishini aniqlash, o'z bilim va salohiyatiga ishonchini kuchaytiradi [2].

### **Muhokama va natijalar**

Tabaqalashtirilgan va individuallashtirilgan ta'lim o'quvchilarning zamonaviy sharoitda raqobatbardosh bo'lib yetishishi, o'zini ijtimoiy muhitda erkin va moslashuvchan ko'rsatishi uchun juda katta ahamiyat kasb etadi. Bola shakllanishida qiyinchiliklarga duch kelmasligi, bilim olishdagi to'siqlarni chetlab o'tishi, o'zini namoyon qilishi, doiradan tashqariga chiqib, yangi yutuq va ixtirolarga erishishi uchun ustozning e'tiborli, individual va tabaqalashtirilgan yondashuvi asosiy omil bo'ladi. Ushbu yondashuvlarda, amaliyotda, "interfaol dars", "jamoaviy o'qitish", "individual loyiha", "mustaqil tadqiqot", "ixtisoslashgan topshiriqlar", "faol suhbat", "rolli o'yin", "shaxsiy portfolioni yuritish" kabi ko'plab metodlar keng joriy qilinmoqda. Masalan, bir guruh o'quvchi berilgan mavzuni matn asosida o'rganadi, boshqasi tavsifli video tomosha qilib tahlil qiladi, yana bir bolalar kichik tajriba yoki amaliy mashg'ulotni to'g'ridan-to'g'ri bajaradi. Ba'zi o'quvchilarda mustaqil fikrlash yoki yangi materiallarni sintez qilish kuchli bo'lsa, ba'zilarida axborotni eslab qolish, asosiy g'oyani ajratib olish yoki o'z so'zida ifodalash kuchli bo'ladi. Tabaqalashtirish va individuallashtirish bunday farqlarni o'rganib, har bir o'quvchining yutuqlarini kuchaytiradi. Bu jarayonda o'qituvchi asosiy tashkilotchidir. Tarbiyachi sifatida, pedagog har bir bolaga alohida e'tibor, to'g'ri yo'lko'rsatkich, yo'l-yo'riq, ruhiy ko'makchiligini amalga oshiradi. Bola har bir muvaffaqiyati e'tirof etiladi, xatolari to'g'ri yo'naltiriladi. O'qituvchi hamisha teng yondashuvda emas, balki

motivatsiyaning, qobiliyat va bilishning aniq darajasiga mos ravishda pedagogik strategiyani tanlaydi. O'qituvchi bu jarayonda mustahkam individual reja va shakllantiruvchi monitoring olib boradi, natijaga ko'ra, metodlarni yangilaydi va o'zgartiradi [3].

Bolalar bilimni tabaqalashtirish va individuallashtirish o'quv jarayoniga kreativlik, ijodkorlik, yangilik, fanlarga qiziqish, o'zlashishga intilish, kommunikasiyalar va ijtimoiy ko'nikmalar paydo bo'lishiga keng imkon yaratadi. Bu esa ta'lim samaradorligini oshiradi, har bir bolaning o'zini jamiyatda erkin tutib, kelajak hayotida faol va muvaffaqiyatli shaxs bo'lib yetishishiga poydevor bo'ladi. Tabaqalashtirish va individuallashtirish jarayonida bolalarda yuqori motivatsiya, ishonch, o'z ustida ishlashga ehtiyoj kuchayadi. Bola faqat ustozni eshitib, so'zni qaytarib emas, dars va hayotiy tajriba asosida yangi bilimlarni o'zlashtirib, ijtimoiy-ruhiy salohiyati mustahkamlana boradi. Bu esa bola individual shaxsiyatining yuksalishiga olib keladi. O'quvchining mahorati, o'zini qadrlashi, kelajak hayotida o'z yo'lini topishi uchun tabiiy sharoit yaratiladi. Zamonaviy psixologiyada hamisha aytilganidek, bola "yagona standart" egasi emas — uning dunyoqarashi, o'rganishga bo'lgan ehtiyoji va imkoniyati turli-tuman bo'ladi. Shu sabab tabaqalashtirish va individuallashtirish bir vaqtning o'zida o'quvchilar o'rtasidagi adolat, teng imkoniyat va ijodiy yondashuv muhitini ta'minlaydi. Metodikada bu "differensiallashtirish" deb ham ataladi. Ya'ni, bolalar orasida o'zlik, qiziqish, oson va qiyin yo'nalishlar, o'zlashtirish darajalari muhimi inobatga olinsa, ta'lim sifatida yuksalish kuzatiladi.

Bugungi kunda pedagogikaning taraqqiyoti, ta'lim sohasidagi innovatsiyalar, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bolalarning individualligiga mos turli platforma va ta'lim shakllarni taklif etmoqda. Onlayn platformalarda darslarni mustaqil yoki guruhda o'zlashtirish, shaxsiy elektron portfolioni yuritish, test, loyihalar va chiqishlar tizimi orqali bola o'z kamchilik va imkoniyatlarini anglaydi, shaxsiy rivojlanish yo'nalishini belgilaydi. Individuallashtirilgan ta'limda o'quvchining o'z-o'zini boshqarishi, shaxsiy rivojlanish ko'rsatkichi, mustaqil mehnat qobiliyati, yangi g'oyalarni ishlab chiqish faolligi ustuvor ahamiyat kasb etadi. Chunki u o'z maqsadini, imkoniyati va qanday yutuqqa yetishi mumkinligini o'zi anglaydi. O'qituvchi shaxsiy taraqqiyot yo'l xaritasini ishlab chiqadi, o'quvchi individual topshiriq, ijodiy ish, mustaqil tahlil asosida bilim oladi va natijani baholaydi [4].

Bolalarning bir xil dasturni o'zlashtirish bosqichlari va tezligi har xil bo'lishi mumkin. Shu sabab, dars jarayonida o'quvchilarni bilim darajasiga ko'ra "tez o'zlashtiradigan", "o'rtacha o'zlashtiradigan", "ko'proq yordamga muhtoj" deb ajratib, har biri uchun shaxsiy vazifa, fanlararo bog'liqlik, test, amaliy ishlanmalar, hayotiy vazifalar tuzish maqsadga muvofiqdir. Individuallashtirishda har bir o'quvchiga mustaqil darslik, topshiriq, loyiha, tahlil, masalalar berish, unga pedagogik maslahat, ishonch, rag'batlantirish bildirish, doim motivatsion muhit yaratish zarur.

Mavjud tizimda o'quvchilarni tabaqalash maqsadida "ijodiy guruh", "o'rganish guruhlari", "qiziqishlar klubi", "fan boyicha loyiha guruhi", "noan'anaviy interfaol darslar", "istant topshiriqlar", "rolli o'yin va dramatisatsiya" kabi innovatsion metodlar keng joriy qilinadi. Individual rivojlanishda bolaning qiziqish va orzusiga mos alohida mashg'ulotlar, dars yoki to'garaklardan foydalanish, hayotiy vazifalarda hamkorga aylanish, amaliyoti va nazariyoti chuqur uyg'unlikda olib borishi lozim. Kundalik ta'lim jarayonida individual va tabaqalashtirilgan yondashuvlar darsdagi atmosfera va muhitni ijobiy tomonga o'zgartiradi. O'quvchi o'z fikrini erkin aytishga, jamoa bilan baravar harakat qilishga, o'z kamchiliklarini o'zi aniqlab, to'g'irlay olishga o'rganadi. Motivatsiya, mustaqil o'qishga rag'bat, kreativlik, tashabbus ko'rsatish, istiqbolga ishonch va muammolarga moslashuv ularning ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishini ta'minlaydi. Asosiy natija shuki, individ sifatida bola boshlang'ich bosqichlardan boshlab o'z qobiliyatini aniqlaydi, ma'naviy, axloqiy, mehnatga layoqatli, bilimdon va xalqiga foydali inson bo'lib yetishadi. Tabaqalashtirish va individuallashtirish metodikasi orqali zamonaviy pedagog qadriyatlari, ilg'or tajriba, milliy va xalqaro innovatsion metodlar birlashadi. Ta'limda tabaqalashtirish va individuallashtirish jarayonida bola va ota-ona ishtirokini kuchaytirish ham muhim. Ota-onalar bilan doimiy maslahat va fikr almashish, bola muvaffaqiyati va kamchiliklari haqida hammualliflik ruhida ishlash ta'lim sifatini oshiradi, bolada yaxshi natijalarga erishish ishtiyoqi kuchayadi. Ustoz har bir bolani yaqindan kuzatib, harakatlarni sinchkov baholab, zarur pedagogik ko'rsatmalar, yordam va maslahatlar beradi. Dalolatli baholash, portfolioni yuritish, oraliq baholash, yutuq va nuqsonlarni tahlil qilish, rivojlanish dinamikasini doimiy yangilab borish muvaffaqiyat garovidir. Shuningdek, o'quvchilarni faollikka undovchi metodlar: "Kichik guruh darslari", "O'yinli darslar", "Muloqot, suhbat, savol-javob asosidagi dars", "Loyiha asosidagi darslar", "Mustaqil tadqiqotlar", "Interaktiv texnologiyalar" o'quvchilarning faolligini, dalda va motivatsiyasini kuchaytiradi. Har bir o'quvchi o'z qobiliyatini, qiziqishi, bilimiga mos ravishda natija ko'rsatsa, umumbashariy va milliy qadriyatlar, mazmunli hayotga tayyorgarlik mukammal bo'lib boradi. Ta'limda tabaqalashtirish va individuallashtirish orqali har bir bola Vatan va jamiyat hayotida o'z o'rnini topadi, intellektual va ijtimoiy barkamol inson sifatida voyaga yetadi [5].

### **Xulosa**

Tabaqalashtirilgan va individuallashtirilgan ta'lim bugungi kun ta'lim tizimining asosiy strategik yo'nalishi hisoblanadi. Bu yondashuvlar har bir bolaning o'ziga xosligi, shaxsiy qobiliyati va bilimiga bo'lgan ehtiyojini inobatga olib, ta'lim jarayonini individual va zamonaviy shaklda tashkil etishga yordam beradi. Natijada o'quvchilar bilim va ko'nikmalarni chuqur hamda mustahkam o'zlashtiradi, mustaqil fikrlash va yangilik yaratish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bolalarda ijtimoiy faollik, tashabbuskorlik, muammolarni yechish ko'nikmasi shakllanadi. Eng muhimi, tabaqalashtirilgan va

individuallashtirilgan ta'lim jamiyat va millat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi, hayotga tayyor, barkamol insonlarni voyaga yetkazish uchun mustahkam asos bo'lib xizmat qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. G'ofurov K.T. "Innovatsion ta'lim texnologiyalari." Toshkent: O'qituvchi, 2021.
2. Jumanazarova G. "Boshlang'ich ta'lim metodikasi." Namangan: Yangi asr avlodi, 2019.
3. Sultonova D.M. "Modern pedagogika va psixologiya." Toshkent: Fan, 2020.
4. Fozilov Yo.I. "Zamonaviy ta'limda innovatsion metodlar." Andijon: Ziyos, 2022.
5. Karimova D.Yu. "Ta'lim motivatsiyasi va individual yondashuvlar." Samarqand: Registon, 2023.
6. To'liqinov O. "Boshlang'ich maktabda differentsiallashtirilgan o'qitish." Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
7. Rustamova N.A. "Pedagogika asoslari." Buxoro: Imkoniyat, 2021.